

Sadikova Gulchexra Erkinovna, Tulyaganov Bobur Sobirovich, Qambarov Xusan Jaxongirovich,
Tulyaganov Rustam Tursunovich

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RO'YXATGA OLINGAN ADAPTOGEN DORI VOSITALARI ASSORTIMENTINI TAHLIL QILISH

Toshkent farmasevtika instituti
e-mail: bobur_zamdek@mail.ru

Ushbu tadqiqot adaptogen dorilarni ro'yxatga olishni o'rganishga bag'ishlangan. O'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Respublikasining adaptogen dori vositalari sohasidagi iste'mol bozori odatda import qilinadigan dori vositalari bilan 91 foizga qoniqtiriladi, ularning narxi mahalliy dori vositalari narxidan -4 7 baravar yuqori. O'zbekiston Respublikasining dori vositalari va tibbiy byumlarning 2021yil 25-sonli Davlat Reestrda ro'yxatga olish tahlili shuni ko'rsatdiki, xorijiy davlatlar orasida Pokiston (59,1%) va Hindiston (8,84%) ulush asosida yetakchilik qilmoqda. Dori shakli bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki, qabul qilingan barcha dorilarning 50% sirop va tabletkalar, 34% kapsula va sashelar, 16% granula shakllarida qo'llaniladi. Suyuq dori shaklida asosan mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan qayd etilganligi aniqlandi.

Tayanch iboralar: adoptogenlar dori vositalari, gurux assortimenti, Davlat reestri, ishlab chiqaruvchilar, dori shakli turi

Dori vositalari orasida adaptogen preparatlar markaziy asab tizimi, gematopoetik organlar va gormonlar holatiga o'ziga xos immunostimulyator va anabolik ta'sir ko'rsatadi; B-limfotsitlarning sensibilizatsiyasi (immunoglobulinlar sintezi) orqali gumoral javobni keltirib chiqaradi; shuningdek, T-limfotsitlar (timusga bog'liq hujayralar), bu hujayrali javobga olib keladi. Adaptogenlar - bu organizmning turli xil salbiy ta'sirlarga (charchoq, stress, depressiya, gipoksiya, issiq yoki sovuq iqlim sharoiti, mintaqalarni o'zgarishi, yuqori bosim, turli tartibdagi infeksiyon kasalliklar va boshqa omillar) moslashishini osonlashtiradigan dorilar hisoblanadi [1].

Shunday ekan bugungi kunda turli kasalliklarni asosiy sababchisi bo'lgan, turli sharoitlarga yoki aksariyat hollarda stress holatga tushish hisoblanadi. Buning natijasida kundalik fiziologik va aqliy toliqish, normal tartibdagi uyquni buzilishi, depressiya holatlari, nerv sistemasi, yurak-qon tomir va hazm qilish tizimidagi kasalliklar yuzaga chiqmoqda. Nevrotik sharoitlar, ortiqcha yuk, stress va depressiya natijasida tanada stress gormoni kortizon ishlab chiqariladi. Bu barcha ichki organlarga salbiy ta'sir qiladi va asab tizimining ishiga to'sqinlik qiladi va qon bosimining oshishiga va tananing charchashiga olib keladi [2].

Adaptogenlar - o'simliklar olingan: Jenshen (Panax ginseng C.A.Meg), Eleuterokokk (Eleutherococcus senticosus maxim), Rodiola (Rhodiola

rosea L.), Limonnik (Schizandra chinensis) va boshqalar. Hayvonlardan olingan: Pantokrin (Pantocrinum). Minerallardan olingan: Mumiyo (Mumie) va sintetik: metilfenoksiasetat oksietilammoniy) bo'lishi mumkin. Keyingi paytda asosan, o'simliklardan olingan adaptogenlar qo'llanilmoqda [3].

Ushbu o'simliklar O'zbekistonda uchramaydi yoki kam zahiralarga ega. Shuni e'tiborga olib, mahalliy dorivor o'simliklar asosida adaptogen preparatlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Adaptogenlarning ta'sir qilish mexanizmi shundaki, ular hujayra darajasida kortizonni neytrallashtiradi, proteinlarning shakllanishini yanada rag'batlantirish, kreatin fosfat va ATF darajasini oshirish, tananing kislorod bilan to'yinganligini oshirishga olib keladi, shuningdek, yurak-qon tomir tizim ishini yaxshilaydi [4].

Tadqiqot maqsadi: O'zbekiston Respublikasining dori vositalari va tibbiy byumlar Davlat Reestrda ro'yxatga olingan adaptogen dori vositalarini 2019 2021 yillar davomida content tahlil asosida o'rganish. Ushbu o'rganilayotgan farmakologik guruh assortimentini tahlil qilish va uni kelajakdagi istiqbollarni aniqlash farmasevtika bozorida marketing tadqiqotlarini o'tkazishda muhim jihatlardan biridir. Shu munosabat bilan adaptogen dori vositalari assortimentini o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Amaliy qism

UDK 615.014

Materiallar va usullar: O'zbekiston Respublikasida qayd etilgan dori vositalari va tibbiy buyumlarning Davlat Reestri, dori vositalarning assortiment tahlili usuli, qiyosiy tahlil.

Natijalar va muhokamalar: hozirgi vaqtda ushbu farmakoterapevtik guruhning assortimenti tahlilida O'zbekiston Respublikasi tibbiyot amaliyotida ruxsat etilgan 2019-2021 yillar uchun dori vositalari, tibbiyot buyumlari va tibbiyot texnikalarining O'zbekiston Respublikasining dori

vositallari va tibbiy buymlar Davlat Reestri ma'lumotlari quyidagi jadval va rasimda keltirildi (1-2-jadvallar va- 1 rasm). Ishlab chiqarilgan mamlakatlar bo'yicha ro'yxatga olish tahlili shuni ko'rsatadiki, adaptogen dorilarning xorijdan 91% keladi. By ko'rsatkich MDH mamlakatlari hissasiga 5% tashkil qilsa, mahalliy ishlab chqaruvchlar hissasiga 4% to'g'ri keladi. Shu bilan birga, ishlab chiqarilgan adaptogen dori vositalarini ro'yxatga olishning yil sayin o'sib borayotganini ta'kidlash lozim.

1-jadval

2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasida ruxsat etilgan adaptogen dori vositalari ro'hati

№	Nomi	Farmakoterapevtik guruh	Firma	Ishlab chiqarish shakli	Narhi	2019 y.	2020 y.	2021 y.	Jami
1	Suyuq ELEUTHEROKOK K EKSTRAKTI	Adaptogen va umumiy stimulyator vositalari	Dalximfarm, OAO	suyuq ekstrakt	7000 so'm	28 005	3 051	15 570	46 626
2	METAPROT	Adaptogen va umumiy stimulyator vositalari	AnviLAB OOO, proizvedeno Farmproekt, ZAO, Rossiya	kapsula		-	-	-	-
3	MELAXEN	Adaptogen va umumiy stimulyator vositalari	Unipharm Inc, AQSh	tablet kalar	66800 so'm	12 216	26 592	9 696	48 504
4	MENORISHAN	Adaptogen va umumiy stimulyator vositalari	Isshaan Healthcare Pvt. Ltd, Hindiston	sirop	22200 so'm	15 000	20 000	20 000	55 000
5	PROLARJ	Adaptogen va umumiy stimulyator vositalari	Unicare (India) Pvt. Ltd, Hindiston	sashe	-	3 000	2 000	3 000	8 000
6	TRIBESTAN	Adaptogen va umumiy stimulyator vositalari	Sopharma PLC, Bolgariya	tablet kalar	255000 so'm	7 868	12 479	22 333	42 680
7	ADAPTOSHREY	Adaptogen va umumiy stimulyator vositalari	Shrey Nutraceuticals & Herbals Pvt Ltd, Hindiston	sirop	-	9 994	10 000	-	19 994
8	ALOE KEYR	Adaptogen va umumiy stimulyator vositalari	Qarshi Industries (Pvt.) Ltd, Pakistan	kapsula	45000 so'm	3 135	8 250	6 105	17 490
9	VIVABON	Adaptogen va umumiy stimulyator vositalari	Xerbion Pakistan (Pvt) Ltd, Pakistan	sirop	16900 so'm	186 580	297 322	53 810	537 712

UDK 615.014

10	VITANGO®	Adaptogen va umumiy stimulyator vositalari	Dr. Willmar Schwabe GmbH & Co. KG, Germaniya	tablet kalar	-	-	-	-	-
11	VOBI KIDS	Adaptogen va umumiy stimulyator vositalari	Rotapharm Ilaclari Limited sirketi, Turkiya Farmamag Ambalaj Sanayi ve Ticaret A.S., Turkiya	sirop	57000 so'm	11 265	6 000	18 934	36 199
12	GINSOMIN	Adaptogen va umumiy stimulyator vositalari	Mega Lifesciences Public Company Limited, Tailand	kapsula	69500 so'm	24 618	25 839	25 224	75 681
13	KINDINORM	Adaptogen va umumiy stimulyator vositalari	Deutsche Homöopathie-Union DHU- Arzneimittel GmbH & Co.KG, Germaniya	granula. fl	57400 so'm	-	4 971	5 095	10 066
14	JENShEN-LIK NASTOYKA	Umumiy tonik vositalari	Lekinterkaps, OOO, Uzbekistan	Flakon nastoyka		15 065	5008	17 675	41 240
15	JENShENYa NASTOYKA	Umumiy tonik vositalari	Radiks, OOO, Uzbekistan	Flakon nastoyka		-	-	-	-
16	JENShENYa NASTOYKA	Umumiy tonik vositalari	ZIYO NUR FARM, ChP, Uzbekistan	flakonnastoyka	18000 so'm	-	-	-	-
17	INKREBON	Umumiy tonik vositalari	Grace pharma, OOO, Uzbekistan	sirop		-	-	-	-
18	TALES ENERGO®	Umumiy tonik vositalari	Nobel Pharmsanoat, IP OOO, Uzbekistan	tablet kalar		11 804	-	-	-
Jami:						328 550	425004	197 442	939 192

2-jadval

2019-2021 yillardagi adaptogen dori vositalarning ishlab chiqaruvchi davlatlar bo'yicha tahlili


№	Ishlab chiqaruvchi davlatlar	Assortiment pozitsiyalari	Miqdoriy ulushi, %
		18	100
Xorijiy davlatlar		11	90,6
1	Hindiston	3	8,8
2	Germaniya	2	1,1
3	AQSh	1	5,2
4	Bolgariya	1	4,5
5	Pokiston	2	59,1
6	Turkiya	1	3,8
7	Tailand	1	8,1
MDH davlatlari		1	5,0
8	Rossiya	2	5,0
9	Mahalliy ishlab chiqaruvchilar	5	4,1

Ishlab chiqaruvchi davlatlar ulushi

MDH
5%

Mahalliy
4%

Xorijiy
91%



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan adaptogen dori vositalarini 2019-2020 yillar holatiga ko'ra ishlab chiqaruvchi mamlakatlar tahlili.

Adaptogen dori vositalarining pozitsiyalari assortimenti tahlili natijalariga ko'ra Davlat reestri bo'yicha O'zbekiston farmasevtika bozorida adaptogenlar assortimenti ishlab chiqaruvchilari ulushiga 18ta assortimentpozitsiyasi firma nomi bilan ifodalanadi. Ushbu dori shakllari quyidagi turda taqdim etiladi: suyuq eritmalar, damlamalar, siroplar, sashelar, kapsulalar, granulalar, drajelar, suyuq ekstraktlar, choylar va o'simlik preparatlardir (3-jadval).


3-jadval

O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan adaptogen dori vositalarini 2019-2021 yillarda holatiga ko'ra dori shakllari bo'yicha tahlili

№	Dori shakli	Assortiment pozitsiyasi	Ulushi, %
1	Suyuq ekstrakt	1	4,96
2	Kapsulalar	3	8,06
3	Tabletkalar	3	9,71
4	Siroplar	3	11,83
5	Sashe	1	0,85
6	Granulalar	1	1,07
7	Nastoykalar	1	4,39
Jami		10	939192

Adaptogen dori vositalarini ishlab chiqargan davlatlar bo'yicha ro'yxatga olish tahlili shuni ko'rsatadiki, yshby dori vositalarining asosiy qismi 91%. xorijiy davlatlardan keladi. MDH davlatlari hissasiga 5%, mahalliy ishlab chiqaryvchilar hissasiga esa 4% to'g'ri keladi. Xorijiy davlatlarning ishlab chiqaruvchilari orasida Pokiston davlati bo'yicha etakchilik qiladi. MDH davlatlari ichida assortiment bo'yicha Rossiya oldingi o'rindadir. Adaptogen dori vositalari dori shakli bo'yicha assortiment tahlillari ham olib borilgan bo'lib 3-jadval va 2 rasmlarda ko'rsatilgan.

O'zbekistonda qo'llaniladigan amaldagi adaptogen dori vositalarining samaradorligi, xususan, preparatning iste'mol xususiyatlarini belgilaydigan dori shaklining qulayligiga ham bog'liqdir. Dori vositalarining shakllari bo'yicha O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tgan adaptogen dori vositalar assortimentini tahliliga ko'ra, ular jami 18 ta pozitsiya bo'lib, ulardan siroplar 11,83%, tabletkalar 9,71%, granulalar 9,3%, kapsulalar 8,06%, parenteral suyuq ekstrakt preparatlar 4,96%, nastoykalar 4,39%, sashelar 1% ni tashkil etdi (3-jadval; 2-rasm).



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatga olingan adaptogen dori vositalarini 2020 yil yanvar oyi holatiga ko‘ra dori shakllari bo‘yicha assortimenti.

Olib borilgan izlanishlar natijalariga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tgan dori preparatlari olinish manbaasi va dori shakllarining turlari jihatdan bir hilligi bilan tavsiflanadi. Respublikamizda ushbu preparatlarning katta qismi horijiy davlatlar tomonidan ishlab chiqarilgan dori vositalariga to‘g‘ri keladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni aytish kerakki, tabiiy xomashyolar asosida mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan adaptogen preparatlarni ishlab chiqarish aholini yuqori sifatli va arzon dori vositalar bilan ta‘minlash hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir (4-jadval; 3-rasm).

4-jadval


2019-2021 yillardagi adaptogen dorilarning narxlari bo‘yicha tahlili

№	Preparat nomi	Ishlab chiqaruvchi davlat, firma	Narhi
1	ELEUTEROKOKK A EKSTRAKT JIDKIY	Dalximfarm, OAO	7000 so‘m
2	METAPROT	AnviLAB OOO, Farmproekt, ZAO, Rossiya	
3	MELAKSEN®	Unipharm Inc, AQSh	66800 so‘m
4	MENORIShAN	Iss‘haan Healthcare Pvt. Ltd, Xindiston	22200 so‘m
5	PROLARJ	Unicure (India) Pvt. Ltd, Xindiston	-
6	TRIBESTAN	Sopharma PLC, Bolgariya	255000 so‘m
7	ADAPTOShREY	S‘hrey Nutraceuticals & Herbals Pvt Ltd, Xindiston	-
8	ALOE KEYR	Qars‘hi Industries (Pvt.) Ltd, Pokistan	45000 so‘m

UDK 615.014

9	VIVABON	Xerbion Pakistan (Pvt) Ltd, Pokistan	16900 so'm
10	VITANGO®	Dr. Willmar Schwabe GmbH & Co. KG, Germaniya	-
11	VOBI KIDS	Rotapharm Ilalari Limited Sirketi, Tursiya ya proizvedeno: Farmamag Ambalaj Sana- nayi ve Ticaret A.S., Turkiya	57000 so'm
12	GINSOMIN	Mega Lifesciences Public Company Limited, Tailand	69500 so'm
13	KINDINORM	Deutsche Homöopathie-Union DHU-Arzneimittel GmbH & Co.KG, Germaniya	57400 so'm
14	JENShEN-LIK NASTOYKA	Lekinterkaps, OOO, O'zbekiston	8565 so'm

Ishlab chiqaruvchi korxonalar



3 –rasm. 2019-2021 yillardagi adaptogen dorilarning narxlari bo'yicha tahlili

Xulosa. O'zbekiston Respublikasi tibbiyot amaliyotida ruxsat etilgan 2019-2021- yillar uchun O'zbekiston Respublikasida qayd etilgan dori vositalari va tibbiy buyumlarning Davlat Reestri ma'lumotlariga ko'ra yuqorida keltirilgan mazkur loyiha doirasida mahalliy tabiiy xomashyolar

asosida yangi tarkibli dori vositasini texnologiyasini ishlab chiqish va tibbiyot amaliyotiga joriy etish mahalliy farmasevtika bozorini o'zimizda ishlab chiqarilgan dori vositalari bilan taminlashda muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar:

1. Kh. K. Bekchanov, Kh. J. Kambarov, L. M. Jalilov, Kh. M. Djalilova, L. Sh. Yakubova, J. Sh. Shoymurodov. Development of the composition and technology of capsules of the medicinal preparation containing the dry extract "SHARQ TABIBI" Journal of Human Universiti, (Natural Sciences) Vol. 48. No. 8. August 2021, 176-185.
2. Evolution of the adaptogenic concept from traditional use to medical systems: Pharmacology of stress and gingrelated diseases. REVIEW ARTICLE wiley online library.com/journal/med Med Res Rev. 2021; 41: 630-703.

UDK 615.014

3. Садыкова Г.Э., Ахмедова Х.Т., Убайдуллаева Н.У. Ассортиментный анализ витаминных препаратов. - Материалы IX Международной научно-практической дистанционной конференции 18 февраля 2021 г. 386-389стр.
4. O'zbekiston Respublikasida qayd etilgan dori vositalari va tibbiy buyumlarning Davlat Reestri 2021yilning 25-sonli.
5. Куркин В.А., Петрухина И.К., Акушская А.С. Исследование номенклатуры адаптогенных лекарственных препаратов, представленных на фармацевтическом рынке Российской Федерации. Фундаментальные исследования № 8, 2014, стр 898-902.

Садикова Гулчехра Эркиновна, Туляганов Бобур Собирович, Камбаров Хусан Джахонгирович,
Туляганов Рустам Турсунович

АНАЛИЗ АССОРТИМЕНТА АДАПТОГЕННЫХ ПРЕПАРАТОВ, ЗАРЕГИСТРИРОВАННЫХ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Данное исследование посвящено изучению регистрации адаптогенных препаратов. Результаты исследования показывают, что потребительский рынок Республики Узбекистан в области адаптогенных препаратов удовлетворяется как обычно на 91% импортными препаратами, стоимость которых в 4-7 раз превышает стоимость отечественных препаратов. Анализ регистраций лекарственных средств и изделий медицинского назначения Республики Узбекистан по Государственному реестру № 25 от 2021 года показывает, что лидерами среди зарубежных стран являются Пакистан (59,1%) и Индия (8,84%). Анализ лекарственной формы показал, что 50% всех принимаемых препаратов были в виде сиропов и таблеток, 34% — в виде капсул и саше, 16% — в виде гранул. Выяснилось, что жидкие лекарственные формы в основном регистрировались местными производителями.

Ключевые слова: адаптогенные препараты, групповой ассортимент, Государственный реестр лекарственных средств и изделий медицинского назначения Республики Узбекистан, производители лекарственных средств, виды лекарственной формы.

Sadikova Gulchekhra Erkinovna, Tulyaganov Bobur Sobirovich, Qambarov Khusan Jahongirovich,
Tulyaganov Rustam Tursunovich

ANALYSIS OF THE RANGE OF ADAPTOGENIC DRUGS REGISTERED IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

This study is devoted to the study of the registration of adaptogenic drugs. The results of the study show that the consumer market of the Republic of Uzbekistan in the field of adaptogenic drugs is usually satisfied by 91% with imported drugs, the price of which is 4-7 times higher than the cost of domestic drugs. The analysis of the registration of medicines and medical supplies of the Republic of Uzbekistan in the State Register № 25 of 2021 shows that Pakistan (59,1%) and India (8,84%) are the leaders among foreign countries. Analysis of the dosage form showed that 50% of all medications taken were in the form of syrups and tablets, 34% in the form of capsules and sachets, and 16% in the form of granules. It was found that the liquid drug form was mainly recorded by local manufacturers.

Key words: adoptogenic drugs, group assortment, State register of medicines and medical devices of the Republic of Uzbekistan, drug manufacturers, type of drug form.